



O‘ZBEK PAREMIOLOGIYASINING LINGVISTIK ASOSLARI

Guljaxon Xayrullo qizi Abdurasulova,
Namangan davlat universiteti, 1-kurs magistranti
sayidaliyevaguljaxon@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida paremiologik birliklarning (paremalarning) o‘rni, ularning frazeologiya bilan aloqasi hamda lingvistik tabiatiga doir ilmiy qarashlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda maqol va matallarning struktur-semantik xususiyatlari, ularning nutqdagi ifoda imkoniyatlari hamda o‘zbek paremiologiyasining shakllanish bosqichlari aniq faktlar misolida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Paremiologiya, paremiologik birlik, maqol, matal, kolorit, milliylik, pragmatik xususiyat, frazeologiya.

Annotatsion : This article analyzes the role of paremiological units (paremes) in Uzbek linguistics, their relationship with phraseology, and scientific views on their linguistic nature. The study shows the structural and semantic features of proverbs and sayings, their expressive possibilities in speech, and the stages of the formation of Uzbek paremiology on the example of specific facts.

Keywords: Paremiology, paremiological unity, proverb, saying, color, nationality, pragmatic feature, phraseology.

Paremiologiya (yunoncha paroimia – hikmatli so‘z, logos – ta‘limot) – tilshunoslikning maqol, matal va aforizmlarni o‘rganuvchi mustaqil sohasidir. O‘zbek tilining boy paremiologik fondi xalqning ko‘p asrlik tajribasi, dunyoqarashi va mentalitetini aks ettiruvchi lingvistik xazinadir. Bugungi kunda o‘zbek paremiologiyasi nafaqat folklorshunoslik, balki zamonaviy tilshunoslikning areal lingvistika, pragmalingvistika va lingvokulturologiya kabi yo‘nalishlari doirasida keng tadqiq etilmoqda.

Dunyodagi har bir til o‘ziga xos milliy koloritga ega bo‘lib, bu kolorit ushbu tilning madaniy shakllangan lingvistik birliklarida o‘z aks topadi. Ushbu birliklar tarkibidagi paremiologik birliklar deb atalayotgan tuzilmalar ham mavjud bo‘lib, ular milliy millatning olam manzarasini aks ettiradi, balki milliy til ongining ajralmas va uzviy butunliklaridan biri hisoblanadi. Sh. Usmonovning baholashicha, maqol va matallarning paremiologik fondi lingvomadaniyatshunoslikda o‘rganish endi



boshlanganini qayd etadi.¹ Darhaqiqat, bunday erkin birliklar tilshunoslik uchun ham ahamiyatli o'rganish manbai sanaladi.

O'zbek tilshunosligida paremalarni o'rganish uzoq tarixga ega bo'lib, uning dastlabki poydevori Mahmud Qoshg'ariyning Devonu lug'atit turk asari bilan bog'liqdir. Mazkur asarda 300 ga yaqin turkiy maqollar jamlanib, ularning semantik izohlari berilgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paremiologiya yo'nalishi tizimli ravishda rivojlana boshladi. Xususan, 1984-yilda nashr etilgan "O'zbek tilining paremiologik lug'ati"da 8449 ta birlik jamlangan bo'lib, shundan 575 tasi N. Ostroumov to'plamidan olingan. Shuningdek, lug'atda 289 ta tarixiy parema, Mahmud Qoshg'ariy asaridan 197 ta, Muhammad Sharif Gulhaniyning Zarbulmasal asaridan 119 ta hamda 2 ta individual muallifga tegishli birliklar keltirilgan. Qolgan 7267 ta paremiologik birliklar esa o'zbek xalq maqollari va matallari hamda turli ilmiy manbalar asosida jamlangan. Biroq ushbu lug'atda paremiologik birliklar alohida tasniflanmagan. Keyingi tadqiqotlarda esa R. Jumaniyozov, E. Siddiqov, B. Sarimsoqov, I. Haqqulov, A. Musoqulov, M. Madrahimova, B. Rahmonov kabi olimlar paremalarni to'plab, ularni mavzu va mazmuniga ko'ra tasniflashga harakat qilganlar. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida paremiologik birliklarning til va nutq hodisasi sifatidagi o'rni va ahamiyatini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Xususan, maqollarning sintaktik xususiyatlari X. Abdurahmonov tomonidan, maqol va matallarning leksik tarkibi hamda dialektal jihatlari esa M. Sadriddinova tomonidan tadqiq etilgan.²

O'zbek xalq maqollarining shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik jihatlari bo'yicha ilmiy izlanish olib borgan B. Jo'rayeva paremiologik birliklar o'rtasidagi tafovutlar, ularning o'zaro aloqasi hamda o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil etadi. Tadqiqotchi maqol va matallarni semantik nuqtai nazardan aniq farqlash zarurligini alohida qayd etadi.

Olima o'zbek xalq maqollarining shakllanish jarayonini intralingvistik omillar asosida 6 guruhga ajratgan bo'lsa, ekstralingvistik omillar ta'sirida yuzaga kelgan maqollarni esa 54 ta guruhga bo'lib o'rgangan.

Paremiologik birliklarni izohlash hamda ularning o'ziga xos farqlarini aniqlab,

¹Усмонова Ш. "Лингвокультурология" фанидан маърузалар курси. – Тошкент, 2014. – Б. 27.

² Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: АН УзССР, 1964; Абдурахмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1977; Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С



tasniflashda S. Ro‘zimboyev va H. Ro‘zmetovlarning hissasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlar paremiologik birliklarni tasniflash jarayonida oltita asosiy mezonni inobatga olganlar. Ularning ta’kidlashicha, maqol va matallar grammatik asoslar soni jihatidan o‘xshash bo‘lishi mumkin. Biroq matallarda ifoda yakuniga yetmagan bo‘lib, ular maqollarga xos qofiya va ohangdorlikka ega emas. Aynan shu jihatlar ularni bir-biridan farqlovchi muhim belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, matallarda ham fikr (maqollardagi kabi) obrazli va ko‘chma ma’noda ifodalanishi mumkin, ammo ularda fikrning yakuniy xulosasi yoki mantiqiy tugallangan natijasi kuzatilmaydi.³

T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqovlar tomonidan tuzilgan “O‘zbek xalq maqollari”⁴ to‘plamida paremalarni 70 ta turli xil mavzuga ajratadi. Bu birliklar tarkibida uchragan ayrim sheva va eskirgan so‘zlar ajratilib, kichik izohli lug‘ati berilgan.

Paremiologiya va frazeologiya o‘rtasidagi chegara tilshunoslikda uzoq vaqt munozarali bo‘lib kelgan. Hozirgi qarashlarga ko‘ra har ikkala birlik ham tilda tayyor holda mavjud bo‘lgan, bir necha so‘zdan tashkil topgan barqaror birikmalardir. Frazeologizmlar (iboralar) asosan gapning bir bo‘lagi bo‘lib kelsa, paremalar (maqollar) yaxlit hukm, ya’ni tugallangan gap shaklida bo‘ladi. Frazeologiya faqat ko‘chma ma’noli turg‘un birikmalarni o‘rgansa, paremiologiya ham ko‘chma (maqol), ham to‘g‘ri ma’noli (matal) hikmatlarni qamrab oladi.

O‘zbek paremalarining lingvistik asoslari ularning o‘ziga xos grammatik va semantik tuzilishida ko‘rinadi. Paremalarning so‘z tartibi odatda o‘zgarmas bo‘ladi. Masalan, "Elni sevgan elda aziz" maqolida so‘zlarning o‘rnini almashtirish uning ritmik va mantiqiy butunligiga putur yetkazadi.

Maqollarda so‘zlar ko‘pincha o‘zining birlamchi lug‘aviy ma’nosidan uzoqlashib, umumlashtiruvchi, obrazli ma’no tashiydi. O‘zbek maqollarida qarama-qarshilik (antiteza) asosiy usuldir. Masalan, "Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, yomon bilan yursang, qolarsan uyatga".

Maqol va matallarni differentsiallashtirish paremiologiyaning asosiy masalalaridan biridir. Maqollar didaktik (o‘rgatuvchi) xarakterga ega, xulosa va hukm ifodalaydi. Masalan: "Mehnat, mehnatning tagi rohat". Matallar esa shunchaki voqea-hodisaga nisbat beradi, ularda maqollardagi kabi kuchli yakuniy hukm bo‘lmaydi. B. Jo‘rayevning fikricha, matallar asosan o‘z ma’nosida qo‘llaniluvchi ixcham hikmatlardir.

Paremiologik birliklar xalqning "madaniy kodi" hisoblanadi. Ularda o‘zbek xalqiga

³ Ҳакимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 18.

⁴ Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 496-508.



xos bo'lgan mehmondo'stlik, oilaga sadoqat, kattalarga hurmat kabi milliy qadriyatlar lisoniy tamg'alangan. Masalan, "Mehmondo'stlik" konsepti o'zbek paremiologiyasida eng ko'p ishlatiladigan semantik maydonlardan biridir.

O'zbek paremiologiyasi tilshunoslikning eng dinamik rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning lingvistik asoslari barqarorlik, obrazlilik, sintaktik tugallanganlik va milliy-madaniy konnotatsiya kabi mezonlar bilan belgilanadi. Zamonaviy tadqiqotlar pemalemlarni nafaqat til birligi, balki inson tafakkuri va madaniyatini bog'lovchi kognitiv vosita sifatida o'rganishni taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: АН УзССР, 1964.
2. Абдурахмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1977.
3. Ҳакимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 18.
4. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном дисс. автореф. – Самарқанд, 2002.
5. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол.фан. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019.
6. Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент:Шарқ, 2005. – Б. 496-508.
7. Рўзимбоев С., Рўзметов Ҳ. Фолклор атамаларининг қисқача луғати. – Урганч,2007. – Б. 27.
8. Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С.
9. Усмонова Ш. “Лингвокультурология” фанидан маърузалар курси. – Тошкент,2014. – Б. 27